

KONSTITUTSIYA -ERKIN VA FAROVON HAYOT GAROVI**Eshquvatova Maftuna ¹**¹ Nodavlat ta'lim muassasasi

Iqtisidiyot va pedagogika universiteti o'qituvchisi

Xorijiy tillar fakulteti

Xudoyqulova Mahina Ashurali qizi ¹¹ FTO '-I 193-24 talabasi

odilovnamaftuna2@gmail.com

**MAQOLA
MALUMOTI****ANNOTATSIYA:****MAQOLA TARIXI:**

Received: 18.12.2024

Revised: 19.12.2024

Accepted: 20.12.2024

KALIT SO'ZLAR:

Konstitutsiya, erkin hayot, yoshlar siyosati, farovonlik, inson huquqlari, demokratik islohotlar, O'zbekiston Respublikasi.

mazkur maqola O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va uning erkin va farovon hayot uchun ahamiyatini yoritishga bag'ishlanadi. Konstitutsiya – har bir fuqaroning huquq va erkinliklarini kafolatlaydigan, davlat va jamiyatning asosiy qonuni bo'lib, uning amalga oshirilishi aholining farovon yashashiga ta'sir ko'rsatadi. Maqolada Konstitutsiyaning asosiy prinsiplaridan biri sifatida fuqarolarning tengligi, adolat, inson huquqlari va erkinliklari ko'rsatilgan. Shuningdek, konstitutsiyaning rivojlanish va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashdagi roli, uning erkin jamiyat qurishdagi o'rni tahlil qilinadi. Maqola, shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilgan konstitutsiyaviy islohotlar va ularning mamlakat aholisining hayoti va farovonligi uchun olib kelgan ijobiy o'zgarishlarni ko'rsatadi.

KIRISH. Konstitutsiya har bir davlatning asosiy huquqiy hujjati bo'lib, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta'minlashda, shuningdek, davlat organlarining faoliyatini boshqarishda muhim rol o'ynaydi. O'zbekiston Respublikasining yangilangan Konstitutsiyasi 2022-yilgi o'zgarishlar orqali jamiyatda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish, inson huquqlarini himoya qilish va yoshlar uchun ko'proq imkoniyatlar yaratish maqsadida yangi normalar qonunlar va ishlab chiqildi. Ushbu maqolada aynan bu

yangilanishlarning yoshlar uchun qanday ahamiyatga ega ekanligi va ular orqali farovon hayotning taminlanishi masalasi tahlil qilinadi.

Asosiy qism:

Konstitutsiyaning yangilanishi va uning maqsadlari

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi davlatning huquqiy asosini tashkil etuvchi eng muhim hujjat bo'lib, har bir fuqaroning huquq va erkinliklarini ta'minlashda asosiy o'rin egallaydi. 2022-yilgi Konstitutsiyaviy o'zgarishlar mamlakatda demokratik islohotlarni kuchaytirish, inson huquqlarini kafolatlash insonlar uchun, jamiyat uchun eng yaxshi huquqiy sharoitlar yaratishga qaratilgan. Ushbu o'zgarishlar orqali erkin adolatli va farovon hayot barpo etish maqsadida ilgari surilgan.

Konstitutsiyaning yangi tahririda fuqarolarning erkinligi va huquqlari alohida ta'kidlangan bo'lib, bu jamiyatda siyosiy iqtisodiy va ijtimoiy islohotlarni davom ettirishda muhim huquqiy asosni yaratadi. Yangilangan Konstitutsiyada davlatning asosiy vazifasini fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish sifatida belgilangan.

Ayniqsa, yoshlar siyosati, inson huquqlarini ta'minlash va ularni amalga oshirish masalalari keng yoritilgan. Bunda Konstitutsiyada yoshlarning jamiyatdagi o'rni va ularning kelajakda erkin va farovon hayotga erishishlari uchun yaratish davlatning asosiy vazifalaridan biri sifatida ko'rsatilgan.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasining yangilangan tahririda yoshlar uchun alohida qonunlar va imtiyozlar ishlab chiqilgan. Bu qonunlar yoshlarni jamiyatdagi faol fuqarolar sifatida shakllantirish, ularning huquqlarini himoya qilish talim olish va ish bilan ta'minlash imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan. Konstitutsiya yoshlarning siyosiy, iqtisodiy faoliyatlarda ishtirok etishini ta'minlaydigan bir qator huquqiy kafolatlar mavjud.

Yoshlarni o'qish, kasb-hunar egallash va ularni ish bilan ta'minlashga oid yangi qonunlar va dasturlar ishlab chiqildi.

Masalan: yoshlarning ta'lim olish, ilmiy ishlanmalar qilish va innovatsion sohalarda faoliyat yuritish imkoniyatlari oshirildi. Davlat tomonidan yoshlarning ta'lim olishiga bo'lgan ehtiyojlar va har bir yoshga mos ta'lim olish uchun keng imkoniyatlar yaratildi. Shuningdek, yoshlar uchun ish joylari yaratish, ularni bandlik va tadbirkorlikka jalb qilish, shuningdek, davlatning ijtimoiy himoyasi orqali farovon hayotga erishishlari uchun yangi qonunlar kiritildi. Yoshlarning huquqlarini himoya qilishga doir yangi normalar ham Konstitutsiyada o'z aksini topgan.

Yangilangan Konstitutsiya erkin va farovon hayotni ta'minlashni asosiy vazifalardan biri sifatida belgilaydi. Erkin va farovon hayot - bu insonlarni ijtimoiy himoya qilish, ularning

iqtisodiy, siyosiy va madaniy huquqlarini ta'minlash, Shuningdek, davlat tomonidan yaratilgan teng imkoniyatlar bilan ajralib turadi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi o'zgarishlarida aynan yoshlar uchun bu prinsiplar yanada mustahkamlandi. Konstitutsiyaning yangi tahririda davlat yoshlarning erkin fikrlash, bilim olish va ijtimoiy faollikni oshirishga ko'maklashishi kerakligi ta'kidlangan.

Yoshlar davlat va jamiyatning kelajagi bo'lib, ularning rivojlanishi uchun barcha zarur sharoitlar yaratildi. Bunda yoshlarning ta'lim olish, sog'liqni saqlash, ish bilan ta'minlanish va ijtimoiy huquqlarini amalga oshirish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan.

Yoshlarning iqtisodiy va ijtimoiy farovonligi jamiyatning umumiy farovonligini ta'minlashning muhim tarkibiy qismi sifatida qaraladi. Shu bois, Konstitutsiyadagi o'zgarishlar yoshlarni ta'lim olish, ish bilan ta'minlash, sog'liqni saqlash va boshqa ko'plab ijtimoiy huquqlarni amalga oshirishda, kafolatlar yaratishga imkon beradi. Buning natijasida yoshlar o'zlari uchun mustahkam kelajakni qurish, jamiyatda o'z o'rnini topish va o'z huquqlari uchun kurashish imkoniyatiga ega bo'lishadi.

O'zbekistonning yangilangan Konstitutsiyasida yoshlar siyosati alohida e'tiborga olinadi. Bu siyosat yoshlarning ta'lim olish, sog'liqni saqlash bandlik va ijtimoiy himoyasini kuchaytirishga qaratilgan. Yoshlar uchun dastur va loyihalar ishlab chiqilishi, ularni davlatning barcha sohalarida ishtirok etishga jalb qilish Konstitutsiyada mustahkamlangan.

Yoshlarning jamiyatdagi o'rni va roli o'zgarmoqda. Ularning siyosiy faolligi, ijtimoiy masalalarda fikr bildirishi iqtisodiy va madaniy faoliyatda qatnashishi davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanadi. Yoshlar siyosati orqali ular nafaqat o'z huquqlarini himoya qilish, balki yangi imkoniyatlarni yaratish orqali jamiyat rivojiga hissa qo'shishadi. Shunday qilib, yoshlarning davlat va jamiyat boshqaruviga faol ishtiroki, ularning erkin va farovon hayotga erishishida muhim ahamiyatga ega.

Xulosa:

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining yangilanishi, ayniqsa, yoshlar siyosati sohasidagi yirik o'zgarishlar, yoshlarning huquqlarini himoya qilish va ularni farovon hayotga erishishga yo'naltirilgan yangi qonunlar orqali erkin va farovon jamiyat qurishga asos bo'ldi. Konstitutsiyada belgilangan yoshlar huquqlarining kengaytirilishi, ta'lim olish, bandlik va ijtimoiy faollikni oshirishga qaratilgan islohotlar yoshlarni davlat rivojiga jalb qilishda muhim rol o'ynaydi. Konstitutsiyasining bu yangilanishi barcha sohalarning rivojlanishi bilan birga yoshlarni ham fuqarolik jamiyatida erkin va barqaror hayotga erishishini kafolatlaydi va ularni jamiyatning yetakchi kuchi sifatida ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (1992).
2. Abduqodirov M "Yoshlar siyosati va uning istiqbollari".
3. Ismoilov A "Inson huquqlari va yangi Konstitutsiya".
4. Abdullaev T ; Yoqubov N "O‘zbekiston Respublikasida huquqlari va erkinliklar himoyasi" .
5. "O‘zbekiston Respublikasi yoshlar ishlari agentligi" .

